

17-dars. O'rganilganlarni takrorlash



1. **Xona qo'shiluvchilari yig'indisi** bo'yicha sonlarni aniqlang.

- a) $40\,000 + 2\,000 + 500 + 70 + 8$
- b) $30\,000 + 9\,000 + 700 + 80 + 3$
- d) $50\,000 + 100 + 40$



2. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Ularning qiymatlarini **kamayish** tartibida joylashtiring va mos harflarni yozing. Ushbu hudud haqida nimalarni bilasiz?

O $6\,547 + 2\,895$

I $5\,921 + 2\,985$

M $6\,554 + 2\,857$

Z $3\,894 + 5\,805$

N $4\,117 + 3\,917$



3. Qo'riqxonada 7 568 ta ignabargli daraxt va ulardan 3 156 ta ko'p bargli daraxt o'sadi. Qo'riqxonada jami nechta daraxt o'sadi?



4. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

$3\,124\text{ dm} + 1\,568\text{ dm}$

$3\,615\text{ cm} + 8\,483\text{ cm}$

$3\,329\text{ dm} + 2\,084\text{ dm}$

$2\,902\text{ cm} + 7\,198\text{ cm}$

$6\,281\text{ dm} + 1\,982\text{ dm}$

$1\,189\text{ cm} + 4\,917\text{ cm}$



5. **Sonlarni** yozing:

- a) 1 789 sonidan keyin keladigan sonni;
- b) 1 344 sonidan oldin keladigan sonni;
- d) 999 sonidan 2 taga katta sonni;
- e) 995 sonidan 19 taga katta sonni;
- f) eng katta uch xonali sondan keyin keladigan sonni.



6. Taqqoslang.

$709 \square 7\,005$

$1\,449 \square 2\,097$

$8\,000 \square 7\,658$

$605 \square 65$

$2\,313 \square 2\,317$

$4\,052 \square 4\,025$



7. Masalalarga **ifodalar** tuzing.


a) Sanatoriya sayyohlarni n ta avtobus va m ta yo'nalishli taksida olib kelishdi. Har bir avtobusda 35 nafardan, yo'nalishli taksida esa 11 nafardan yo'lovchi keldi. Sanatoriya jami necha nafar sayyoh kelgan?

b) Sanatoriya a ta ikki o'rinli va b ta to'rt o'rinli xonalar bor. Sanatoriya jami necha kishi joylashishi mumkin?

d) Sanatoriya oshxonasida x ta 6 o'rinli va y ta 4 o'rinli stol bor. Bu oshxonada bir vaqtning o'zida necha kishi ovqatlana oladi?



8. Ushbu harflarning **yuzini** kataklarda o'lchang. Qaysi harfning yuzi eng kichik?



9. Avtomobil nomerlari harflar va **uch xonali** sonlardan iborat. Jasur faqat raqamlari yig'indisi **7** ga teng bo'lgan nomerlarni omadli deb hisoblaydi. Uning uchun nechta avtomobil nomeri omadli bo'lishi mumkin?



10. Nurota qo'riqxonasida noyob tog' qo'ylarining 4 ta guruhi aniqlandi. Bu guruhlarining har birida 7 tadan yosh qo'zi bor. Qo'riqxonada jami nechta yosh qo'zi bor?

11. Ifodalarning qiymatini amallarning **to'g'ri tartibiga** rioya qilgan holda hisoblang.

a) $715 + 384 + (284 + 659)$ b) $1490 + (1508 + 1548 + 1189)$

